




2021- yilning yanvar-avgust oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Buxoro viloyatida jami **4572,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **107,2 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2907** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **248** taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurilish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **105,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **60,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurilish **114,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,9 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **115,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **30,8 %**) o'sishidir.



Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	2020- yil 1- sentabr holatiga	2021- yil 1- sentabr holatiga	
Buxoro viloyati	2659	2907	109,3
Buxoro sh.	869	970	111,6
Kogon sh.	101	119	117,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	63	77	122,2
Buxoro	222	233	104,9
Vobkent	115	126	109,6
G'ijduvon	197	197	100
Kogon	129	145	112,4
Qorako'l	95	114	120,0
Qorovulbozor	41	53	129,3
Peshku	142	159	112,0
Romitan	218	236	108,3
Jondor	230	243	105,7
Shofirkon	217	235	108,3


Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (33,4 %) va Jondor (8,4 %), Romitan (8,1 %), Shofirkon (8,1) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **927,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **130,7 %** ga bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **3,9 %** punktga koʻpayib, **20,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi



■ ulushi, % da ■ o'sish sur'ati, % da




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qorovulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **79,5 %** i yoki 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **116,1 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **70,6 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **111,1 %**) va Romitan tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **40,5 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **4,8 m.**) ga toʻgʻri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-avgust oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **51,3 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oyi ko'rsatkichiga nisbatan **2,1 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **101,9 %** ni tashkil etgan holda **2346,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,4 %** ni tashkil etdi yoki **1299,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **104,0 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **245,3** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4327,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





2021- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	4572,6	245,3	5,4	4327,3	94,6
Buxoro sh.	975,0	114,7	11,8	860,3	88,2
Kogon sh.	238,8	6,8	2,8	232,0	97,2
<i>tumanlar:</i>					
Olot	319,4	14,7	4,6	304,7	95,4
Buxoro	409,2	12,8	3,1	396,4	96,9
Vobkent	100,6	7,7	7,7	92,9	92,3
G'ijduvon	382,6	9,1	2,4	373,5	97,6
Kogon	306,8	5,8	1,9	301,0	98,1
Qorako'l	215,9	9,6	4,4	206,3	95,6
Qorovulbozor	262,6	4,1	1,6	258,5	98,4
Peshku	265,0	9,5	3,6	255,5	96,4
Romitan	540,5	22,6	4,2	517,9	95,8
Jondor	310,9	19,6	6,3	291,3	93,7
Shofirkon	245,3	8,3	3,4	237,0	96,6

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2021- yil yanvar-avgust

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **56,1 %** i yoki **2563,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

56,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **457,8** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,9 %** ni tashkil etdi

17,9 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **983,1** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **38,3 %** ni tashkil etdi.

38,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1123,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **43,8 %** ni tashkil etdi.

43,8 %




**2021- yilning yanvar-avgust oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Buxoro viloyati	4572,6	107,2	2563,9
Buxoro sh.	975,0	95,3	463,0
Kogon sh.	238,8	98,6	91,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	319,4	101,7	220,4
Buxoro	409,2	100,1	247,7
Vobkent	100,6	117,7	66,8
G‘ijduvon	382,6	100,2	311,5
Kogon	306,8	104,0	252,6
Qorako‘l	215,9	114,8	190,0
Qorovulbozor	262,6	108,3	43,7
Peshku	265,0	112,6	127,5
Romitan	540,5	165,6	347,6
Jondor	310,9	112,3	78,9
Shofirkon	245,3	100,6	122,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.





**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida
qurilish ishlari**

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	4572,6	3 151,0	651,0	770,6
Buxoro sh.	975,0	613,9	226,1	135,0
Kogon sh.	238,8	134,7	9,7	94,4
<i>tumanlar</i>				
Olot	319,4	198,5	26,7	94,1
Buxoro	409,2	327,3	34,9	47,1
Vobkent	100,6	83,1	11,2	6,3
G'ijduvon	382,6	319,2	28,4	35,0
Kogon	306,8	235,0	31,6	40,2
Qorako'l	215,9	166,5	26,4	22,9
Qorovulbozor	262,6	46,1	93,3	123,1
Peshku	265,0	195,4	30,6	39,1
Romitan	540,5	448,3	45,3	46,8
Jondor	310,9	214,7	46,9	49,3
Shofirkon	245,3	168,4	39,7	37,3



2021- yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (975,1 mlrd. so'm), Romitan (540,4 mlrd. so'm), Buxoro (409,2 mlrd. so'm) va G'ijduvon (382,7 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: (65) 223-81-99